

BANK TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA ISLOH ETISH YO'LLARI

*Moxinur Xamrakulova, Nigora Azamatova
TDIU SMMT-77 guruh talabalari*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlash, banklar raqobatbardoshligini yanada oshirish borasida amaliyotga yangi yo'naliishlarni joriy qilish va yuqori samaradorlikka erishishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Misol qilib aytganda, stress-test kompleks jarayon hisoblanib bir qator universal yondashuvlarni qo'llanilishiga qaramay har bir mamlakatda stress-testni qo'llashda uning tarixiy, siyosiy, iqtisodiy holatlari hisobga olinadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida stress-testni qo'llashda tijorat banklari likvidliligiga, ular taqdim etayotgan kredit porfellariga, ularning balansidagi qimmatli qog'ozlar bahosiga ta'sir etuvchi milliy valyutaning denamikasi, neftning bahosi, iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy holati, YaIM hajmi kabi bir qator omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar stress-test oldi jarayonlarni makrodarajada ko'rib chiqadigan bo'lsak, stress natijalarni ikki xil turini ko'rsatib o'tish mumkin:

- oldindan aytib bo'ladijan;
- oldindan aytib bo'lmaydigan.

Oldindan aytib bo'ladijan o'zgarishlarni bir qator, doimiy obyektiv baholar natijasida ko'rish mumkin (ya'ni pul-kredit siyosati bilan bog'liq bo'lgan kredit stavkalarining o'zgarishi).

Oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlar, yangi to'g'ridan to'g'ri yoki qarama-qarshi aloqalarning vujudga kelishi yoki панескими эффектами bilan izohlanadi.

Stress-testdagi inobatga olinishi kerak bo'lgan muhim jabhalardan biri kreditlash jarayonidir. Kreditlashda bank, faoliyatining asosi hisoblanib, bank biznesi rivojlanishi va o'sishini ta'minlovchi operatsiyadir, lekin krezip davrida bu faoliyat turining risk darajasi keskin ravishda oshadi. Risk darajasi to'g'ridan to'g'ri bank kredit porfelining tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Ko'p banklar riskning sistemali o'sishini hisobga olgan holda omonatchilarga bo'lgan talablarni bekor qilishga harakat qiladi, boshqa bir qator banklar esa, risk darajasi yuqori bo'lishiga qaramay yangi omonatchi mijozlarni jalb qilishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda stress-testga bo'lgan yondashuvlarning asosiy qismini kredit risklari tashkil qiladi. Aniqroq aytgan bo'lsak, stress omillar ta'sirida berilgan kreditlar

va bankning joylashtirilgan boshqa mablag'larining qaytmasligi natijasida ko'rildigani zararlarga katta e'tibor beriladi.

Kompleks stress-testni ishlab chiqishda tartibli tahlil elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bankni tashqi makroiqtisodiy muhitdagi faoliyatini haqiqatga yaqin bo'lgan ko'rsatkichlarini, stress jarayonlarga ta'sirini o'tkazish modelini tuzish imkonini beradi.

Davlatimizning tijorat banklari faoliyatida stress-testni joriy qilish banklar faoliyatida yuqori darajada o'sish kuzatilishiga imkon yaratadi va rivojlanish darajasini yanada oshiradi. Tijorat banklarining iqtisodiy faoliyati qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, bankning iqtisodiyotning real sektorlarni moliyalashtirishga yo'naltiradigan kreditlari hajmi ham yanada oshadi va shu bilan birga mamlakatning barqaror rivojlanishiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida tijorat banklarining kapitali yetarlilagini baholashda bir vaqtning o'zida ikkita ko'rsatkich qo'lanilmoqda.

Birinchi ko'satkich Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda kapitalning yetarliligi umumiyligi kapitalni brutto aktivlarga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Ikkinci ko'satkich Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Fikrimizcha, Xalqaro hisob-kitoblar bankining metodikasidan voz kechish kerak. Chunki, Bazel qo'mitasining kapitalining yetarlilagini baholash metodikasi oldingi metodikaga nisbatan mukammalligi bilan turadi.

Xalqaro Bazel standartida devalvatsiya zaxirasini tijorat banklari kapitalining tarkibiga kiritsh man etiladi. Ammo devalvatsiya zaxirasi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining tarkibiga kiritilgan.

Devalvatsiya zaxirasi nobarqaror moliyalashtirish manbalari bo'lganligi sababli uni kapital tarkibida hisobga olish banklar kapitalining barqarorlik darajasini pasatishiga olib keladi.

Shu sababli, fikrimizcha devalvatsiya zaxirasini tijorat banklarining kapitali tarkibidan umuman chiqarib tashlash lozim. Devalvatsiya zaxirasi kapital tarkibidan chiqarilganda bankning daromadiga boradi. Ammo bu daromad soliqqa tortilmasligi lozim.

Fikrimizcha respublikamiz tijorat banklarida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan qo'shimcha kapital miqdorini ko'paytirish imkoniyati mavjud.

Ushbu subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun investorlarning ularga qilingan investitsiyalardan oladigan daromadlari soliqdan ozod qilinishi kerak.

Shu bilan bir qatorda yuqoridagi kamchiliklarning sababi sifatida, tijorat banklari jami kapitalining va asosiy kapitalining yetarlilik darajasini boshqarish amaliyoti tahlil qilish natijalari orqali, banklarning riskka tortilgan aktivlari hajmining nisbatan pastligi va asosiy kapital nobarqaror moliyaviy manbalar hisobidan o'sib borayotganidir. Ushbu masalaning yechimi sifatida banklarning sof foydasini asosiy kapital tarkibiga kiritish lozim, shuningdek, asosiy kapitalni moliyaviy barqaror manbalar hisobidan shkllantirishning mavjud boshqa imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish lozim.

Har bir moliyaviy resurs turidan foydalanish va uni boshqarishning o'ziga xos usullari va qoidalari mavjud bo'lib, tashqi va ichki shart-sharoitdan kelib chiqib ulardan foydalaniladi. Muammoni tadqiq etib va olingen xulosalar asosida tanlangan ob'ektni tahlil qilib tijorat banklari kapitalini samarali boshqarishga quyidagi takliflarni kiritamiz:

1. Bank kapitalini yetarli darajada diversifikatsiya qilish, bank kapitali tarkibida muammoli moliyaviy resurslar salmog'ining imkon darajasida past bo'lishiga erishish.
2. Moliyaviy resurslar tarkibida daromad keltirmaydigan moliyaviy resurslar salmog'ining imkon darajasida past bo'lishiga erishish.
3. Moliyaviy resurslar va passivlar o'rtasida o'zaro mutanosiblikni vujudga keltirish.
4. Moliyaviy resurslarni joylashtirishda ta'minot va xatar darajasiga katta e'tibor qaratish.
5. Moliyaviy resurslar bo'yicha vujudga keladigan xatarlardan saqlanish uchun zahira va kapitalning yetarlilik darajasini saqlab turish.
6. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarga katta e'tibor qaratish.
7. Banklarning ma'lum tarmoqqa ixtisoslashuvidan asta-sekin chekinish¹.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapital bazasining barqarorligini oshirish maqsadida kapitalning tarkibi Xalqaro Bazel qo'mitasining tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirish bo'yicha berilgan talablariga to'liq muvofiq kelishini ta'minlash va tijorat banklari umumiyligining o'sish sur'atini yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atidan orqada qolishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish lozim.

Buning uchun quyidagi talablarlar amalga oshirilishi lozim:

- devalvaltsiya zaxirasini tijorat bankining kelgusi davr daromadlari sifatida baholash (devalvaltsiya zaxirasi kamida o'n yilga taqsimlanishi lozim) va uning summasini banklarning kapitali tarkibidan chiqarilishi lozim (agar devalvaltsiya

¹ Abdullaev Sh. "Pul kredit va banklar".:Toshkent. Moliya 2000.

zaxirasi tijorat banklarida joriy davr daromadi sifatida hisobga olinsa, u holda, banklarning soliqqa tortish bazasi oshib ketadi);

- imtiyozli kreditlash fondining mablag'lari tijorat banklari kapitalining tarkibida hisobga olinmasligi kerak, chunki ushbu fond mablag'lari kredit sifatida ishlatalidi, kredit esa yuqori riskli aktiv hisoblanadi;
- respublikamiz tijorat banklarining imtiyozli aksiyalarini sotishdan olingan pul mablag'lari ustav kapitalining tarkibida hisobga olinmasligi lozim, chunki imtiyozli aksiyalar summasi moliya yili davomida investor tomonidan qaytarib olinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. A. Vaҳобов, T. Malikov. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T. Malikov, N. Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent: "Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент, "Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
11. Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.“." (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.“." (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У Ғайбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Махаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбани оширишда инноватсион менежментни ривожлантириш/Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.

- 16.У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни тақомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор.2020
- 17.У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023. T4, №5, 1550-1564
- 18.Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденсиялари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.
- 19.Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Ҳудудларни ижтимоий-иктисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
- 20.Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.«." (2017).
- 21.Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар.“." (2020).
- 22.Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимига интегратсиялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
- 23.Уроков, У. "Махаллий бюджетлар молиявий баркарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." Молия-кредит тизимининг иктисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
- 24.Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари.“. Молия” журнали. 2014.
- 25.Хайдаров Н. Давлат молиясини бошкариш. Т.:«Академия. 2005.
- 26.Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
- 27.G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O ‘quv qo‘llanma. - Т.: Baktriapress, 2016